XITOYDA SIYOSIY TAHLIL SOHASINING BUGUNGI HOLATI (AQLIY MARKAZLAR MISOLIDA)

Ortiqov Shohjahon
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xitoy siyosiy tahlil tizimining shakllanishi, Xitoydagi aqliy markazlarining davlat siyosatini ishlab chiqish jarayonidagi roli va ahamiyati hamda xitoydagi mavjud aqliy markazlarning turlari, o‘ziga xos xususiyati, g‘arb aqliy markazlaridan farqi ko‘rib chiqiladi. 2023-yilda Xitoyda “xitoycha xususiyatlarga ega yangi turdagi aqliy markazlar” qurish strategiyasining 10 yilligi keng nishonlandi. Shu sababli ham ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi bugungi kundagi xitoy siyosiy tahlil sohasining holatini tadqiq etishdir.

Kalit so‘zlar: DRC, CIRD , G‘oyalar bozori, xitoycha xususiyatlar, think tank, avtoritar g‘oyaviy boshqaruv, veto qo‘yish, plyuralistik kontekst, XKP, RDCY

KIRISh Bugungi kunda eng ko‘p aqliy markazlarga ega bo‘lgan AQShga bevosita raqobatchi sifatida maydonga Xitoy kirib keldi. Xitoy aqliy markazlarning soni bo‘yicha AQShdan keyingi o‘rinni egallab turibdi. Qiziq tomoni shundaki, AQShda XX asr boshidan boshlangan aqliy markazlarning rivojlanishi Xitoyda qisqa muddat ichida shu darajaga erishdi. Garchi XX asr ikkinchi yarmidan ravnaq topa boshlagan aqliy markazlar faoliyati Xi Jinping davrida o‘z cho‘qqisiga chiqdi va Xitoyning aqliy markazlar faoliyatidagi yutuqlari ham ushbu davr siyosiy holatiga bog‘liq. Bundan tashqari Xitoyning avtoritar davlat o‘laroq shunday natijaga erisha olganligi tahsinga sazovor. 2013-yilda Xi Jinping rahbarligida boshlangan ushbu milliy strategiya milliy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va Xitoyning yumshoq kuchini oshirishni maqsad qilgan. Natijada, mamlakatda 1900 dan ortiq aqliy markaz faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, eng so‘nggi “Global Go To Think Tank Report” ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda xalqaro miqyosda aniqlangan 11 175 ta tashkilotning qariyb 17 foizi Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelgan [1]. Garchi Xitoydagi aqliy markazlar orasida xususiy, mustaqil faoliyat olib boradiganlari ham bo‘lsada, asosiy aqliy markazlar partiya-davlat doirasida tashkil etilgan va ularning bevosita nazorati ostida hisoblanadi. Ushbu maqolada esa ushbu masalalar to‘liq yoritiladi, ya‘ni Xitoydagi aqliy markazlarning bugungi holati, ularning hukumat bilan aloqalari va g‘arb aqliy markazlari bilan qiyosiy tahlilni ko‘rib chiqamz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Xitoyda siyosiy tahlil sohasi rivojlanishda davom etmoqda va ayniqsa bu holat 2013-yilda Si Szinpinning tashabbusidan keyin keskin rivojlandi. Xitoydagi siyosiy tahlil sohasi, aniqrog‘i, aqliy markazlar turlari va faoliyati haqida turli mahalliy va chet el olimlari tadqiqot olib borishgan va o‘z maqolalarida ular haqida ta’kidlab o‘tishgan. Jumladan, Xitoy Nanjing universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti professori, Xitoy aqliy markazlari bo‘yicha yetakchi tahlilchi Venxing Chjou o‘zining “Xitoy xususiyatlariga ega aqliy markazlar” nomli maqolasida “Xitoy yangi aqliy markazlarning sifati, soni va institutsional qurilishida taraqqiyotga erishgan bo‘lsada, eng jiddiy muammo raqobatbardosh g‘oyalar bozori va ochiq aqliy markaz madaniyatini shakllantira olmaganligidir” deya ta’kidlab o‘tgan. [8] Shanxay Ijtimoiy fanlar akademiyasi Aqliy markazlar tadqiqot markazi rahbari Yaqin Yang esa “Milliy boshqaruvni

modernizatsiya qilish aqliy markazlar rivojlanishining asosiy kafolati hisoblanadi. Asosiy vazifa Xitoy aqliy markazlarini milliy boshqaruv tizimiga chuqurroq integratsiya qilishdir” deya o‘zining “Xitoycha xususiyatlarga ega yangi aqliy markazlarni modernizatsiya qilish” nomli maqolasida ta’kidlagan edi [9]. Shuningdek ushbu maqolada asosan qiyosiy tahlil sohasi (metodi)dan foydalanildi.

NATIJALAR

1-ilova

Xitoydagi aqliy markazlar ro‘yxati. [1]

Official list of the national key 29 think tanks and their ownership/ sponsor type

ENGLISH NAME	CHINESE NAME	ORGANIZATION TYPE
State Council Development Research Center	国务院发展研究中心	Party-state organ
Chinese Academy of Social Sciences	中国社会科学院	Party-state organ
Chinese Academy of Sciences	中国科学院	Party-state organ
Chinese Academy of Engineering	中国工程院	Party-state organ
Central Party School	中央党校	Party-state organ
Chinese Academy of Governance	国家行政学院	Party-state organ (Now merged with Central Party school)
Central Compilation & Translation Bureau	中央编译局	Party-state organ
Xinhua News Agency	新华社	Party-state organ
Academy of Military Sciences	军事科学院	Party-state organ
National Defense University	国防大学	Party-state organ
Shanghai Academy of Social Sciences	上海社会科学院	Party-state organ
China Institute of International Studies, Ministry of Foreign Affairs	中国国际问题研究院	Party-state organ
Chinese Academy of Fiscal Sciences, Ministry of Finance	中国财政科学研究院	Party-state organ
Chinese Academy of Science and Technology for Development, Ministry of Science and Technology	中国科学技术发展战略研究院	Party-state organ
National Institution for Finance and Development, Chinese Academy of Social Sciences	中国社会科学院国家金融与发展实验室	Institute within a Party-state organ
National Institute for Global Strategy, Chinese Academy of Social Sciences	中国社会科学院国家全球战略智库	Institute within a Party-state organ
China Institutes of Contemporary International Relations	中国现代关系研究院	Institute within a Party-state organ
Academy of Macroeconomic Research, National Development and Reform Commission	国家发改委宏观经济研究院	Institute within a Party-state organ
Chinese Academy of International Trade and Economic Cooperation, Ministry of Commerce	商务部国际贸易经济合作研究院	Institute within a Party-state organ
National School of Development, Peking University	北京大学国家发展研究院	University center
Institute for Contemporary China Studies, Tsinghua University	清华大学国情研究院	University center
National Academy of Development and Strategy, Renmin University of China	中国人民大学国家发展与战略研究院	University center
China Institute of Fudan University	复旦大学中国研究院	University center
Wuhan University Institute of International Law	武汉大学国际法研究所	University center
Institute of Guangdong, Hong Kong and Macao Development Studies, Sun Yat-sen University	中山大学粤港澳发展研究院	University center
Economics & Technology Research Institute, China National Petroleum Corporation	中国石油经济技术研究院	University center
China Institute of Education and Social Development, Beijing Normal University	北京师范大学中国教育与社会发展研究院	University center
China Center for International Economic Exchanges	中国国际经济交流中心	
China Development Institute (China-Shenzhen)	综合开发研究院（中国·深圳）	

Bugungi kunda Xitoyda 1900 dan ortiq faol aqliy markaz mavjud bo‘lib, siyosat muhokamasi va targ‘ibotida ishtirok faol ishtirok etib, partiya-davlat siyosatini shakllantirish va o‘zaro aloqada muhim rol o‘ynab kelmoqda. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, Xitoy aqliy markaz direktoriyasi 2022-yilda 1928 ta faol aqliy markazni ro‘yxatga olgan [1]. Aqliy markazlar Xitoyning tashqi siyosati va diplomatik amaliyotida muhim aktor sifatida paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, ular qaror qabul qilish jarayoniga ta‘sir ko‘rsatishda muhim rol o‘ynamoqda va g‘arb ustunlik qiladigan liberal xalqaro tartib o‘rniga tizimli muqobil loyihani taqdim etishga qodir bo‘lib bormoqda [2]. Xitoy Xalq Respublikasi rahbari Si Szinpin ma’muriyati so‘ngi o‘n yillardan buyon aqliy markazlar faoliyatini hukumat siyosatining kun tartibiga ko‘tarmoqda hamda rag‘batlantirmoqda. Shundan kelib chiqib, ularning soni bugungi kunda yanada oshganini aytish mumkin.

Aqliy markazlar hukumat va keng jamoatchilik uchun dolzarb mavzular bilan shug‘ullanadigan siyosat tadqiqoti yoki targ‘ibotga yo‘naltirilgan tashkilotlar hisoblanadi. Aqliy markazlar asosan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalar bo‘yicha siyosiy-tahliliy izlanishlar olib borgan holda qaror qabul qiluvchilarga (hukumatlar, siyosiy liderlar, tashkilotlar) tavsiyalar berish bilan shug‘ullanadi. O‘z o‘rnida, aqliy markazlarning bajaradigan vazifasini, ularning xususiyatiga qarab emas, balki umumiy holatda ikkiga: xususiy moliyaviy qo‘llovchilarga ega yoki mustaqil hamda davlat tomonidan bevosita moliyalashtiriluvchi kabi ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Bu mavzuga batafsil yondashishimizdan oldin aytish joizki, Xitoyda bu holat dunyoning yetakchi davlatlariga qaraganda tubdan farq qiladi, sababi avtoritar bo‘lgan ushbu davlatni g‘arb davlatlariga solishtiradigan bo‘lsak, aqliy markazlar Xitoyda asosan hukumat ta’siri ostida ekanligining guvohi bo‘lish mumkin. Yevropa mamlakatlari hamda AQSh aqliy markazlari ko‘pincha hukumat bilan ideologik va moliyaviy aloqalarga ega bo‘lsa-da, ular plyuralistik ko‘rinishda mavjud. Ya’ni, aqliy markazdagi tahlilchilar turli fikrlar, qarashlar va yondashuvlarda erkin bo‘lishadi, doimiy raqobatda bo‘lishadi, ommaviy axborot vositalarida erkin fikrlarini ayta olishadi va hatto, hukumatni va partiyalarni erkin tanqid qila olishadi. Ammo, bu holat Xitoyda boshqacha. Xitoy hukumati markazlashgan va davlatda nazorat juda kuchli. Garchi Xitoyda ham tahlilchilarning fikr bildirishini to‘liq cheklangan deyish biroz xato bo‘lsada, ko‘rishimiz mumkinki aqliy markazlarning hukumatni tanqid qilishi cheklangan, ochiq bahs kabi holatlar deyarli yo‘q. Bunga sabab qilib Xitoyda shakillangan tuzum va asosan 2013-yildan boshlab ilgari surilayotgan “Xitoycha xususiyatlarga ega aqliy markazlar”ni yaratishga oid tashabbus va siyosat hisoblanadi. Dastavval, Xitoyda aqliy markazlar 1980-yillardan boshlab shakillana boshlagan. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, 1978-yildan boshlangan Den Syaopinning iqtisodiy va ochilish siyosati aqliy markazlar rivojlanishining poydevori bo‘lib xizmat qildi. Garchi bundan oldin ham siyosatga yo‘naltirilgan tadqiqot institutlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, (1977-yilda Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi tashkil etilgan bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borishi bilan birga, zamonaviy zamonaviy aqliy markazlarning birinchi namunalaridan biri sifatida qaraladi) asosiy burilish nuqtasi mana shu davrga borib taqaladi.

1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab Xitoyda aqliy markazlarning faoliyati tez rivojlandi va xilma-xil bo‘la boshladi. Buning asosiy sababi hukumat xususiy va tijorat shakldagi aqliy markazlarni yaratishga asta-sekin ruxsat berdi va ularni cheklovlardan ozod qildi (liberallashtirdi). Xitoy hukumati, 1980-yillarda Development Research Center of the State Council (DRC) – “Davlat Kengashi Rivojlanish Tadqiqot Markazi” kabi zamonaviy aqliy markazlarni asosan hukumat ichidagi siyosiy tadqiqotlar uchun tashkil etishni boshlagan. 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab aqliy markazlar sohasi rivojlandi hamda

xilma-xillashdi, chunki endi faqat davlatga bog‘liq institutlar emas, xususiy va tijorat asosidagi tashkilotlar ham paydo bo‘la boshladi. Bir qator mustaqil aqliy markazlar tadqiqot va jamoatchilik muhokamasi markazlari sifatida tashkil qilindi. Masalan, “Unirule Iqtisodiyot instituti” 1993-yilda besh iqtisod professori tomonidan tashkil etilgan. Bozor islohotlariga bag‘ishlangan bu institut Pensilvaniya universiteti tomonidan chop etiladigan yillik “Go To” hisobotida muntazam ravishda nufuzli deb topilgan. Ammo keyinchalik, Si Szinpin Xitoy hukumatiga kelgach Xitoy aqliy markazlar rivoji butkul o‘zgardi. Bunga esa uning qoidalarni qat’iylashtirish, nazoratni kuchaytirish siyosati sabab bo‘ldi.

2013-yilda Xitoy Xalq Respublikasi rahbari Si Szinpin tomonidan “xitoycha xususiyatga ega aqliy markazlar”ni takomillashtirish siyosati ilgari surila boshlandi hamda “partiyaga ergashish”ni asosiy tamoyil deb belgiladi [3]. Shuningdek, ushbu siyosat bugunga kelib Xitoyda mavjud aqliy markazlar faoloyatini tushunishning asosini tashkil etmoqda.[4] Chunki, bugungi kundagi Xitoy siyosiy tahlil sohasida qilinayotgan yangiliklar va harakatlar ushbu siyosatning bevosita davomi hisoblanadi. Shuni takidlash joizki, Si Szinpin davrida boshlangan siyosiy qattiqlashuv 2013-yildan boshlab norasmiy tashkilotlarga ta’sir qila boshladi. Xitoy rahbarlari Xitoy aqliy markazlari an’anaviy yoki g‘arb modellariga ergashmasligi, balki o‘z xususiyatlarini rivojlantirishi kerakligini bir necha bor ta’kidladilar. Xitoy Komunistik Partiyasining mashhur 9-raqamli hujjati 2012-yilda “G‘arb sivil jamiyati tushunchalari” va “internetdagi erkin axborot oqimi” kabi yetti “qabul qilinmas yovuzlik”ni nishonga oldi va ularni “Xitoyga qarshi kuchlar” tomonidan hukmron partiyaning asosini buzish vositasi deb atadi.[5] Natijada bu o‘zgarish Xitoy tizimida mavjud bo‘lgan asosiy uch turdagi aqliy markazlar turning uchunchi turi - norasmiy aqliy markazlarda tezda sezildi. Misol uchun, “Unirule Iqtisodiyot Instituti” 2019-yilda yopildi va Xitoyning eng mashhur va nufuzli aqliy markazlaridan birining faoliyati to‘xtatildi.

Xitoy hukumati rahbari Si Szinpin ushbu siyosatni joriy qildi, hatto milliy strategiya darajasigacha olib chiqdi, Xitoyni duyodagi ikkinchi eng yirik aqliy markazlar soniga ega davlatga aylantirdi. Shu o‘rinda, uning “Xitoycha xususiyatga ega aqliy markazlar” yaratish strategiyasining mohiyati nimada ekanligi aniqlashtirilishi kerak. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi shundan iboratki, siyosiy tahlilchilarni va ularning bilimini partiya-davlatga sidqidildan xizmat qilishga jalb qilish hisoblanadi va shu ko‘rinishdagi yangi aqliy markazlar tizimini yaratish hisoblanadi. Ushbu xitoycha xususiyatni o‘zida aks ettiruvchi eng asosiy xususiyat Xitoydagi barcha aqliy markazlarning Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) strategik maqsadlari va siyosiy yo‘nalishlariga mos kelishining shartligidir, ya’ni partiya-davlat ustunligi hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, barcha aqliy markazlarning faoliyati xoh u xususiy bo‘lsin, xoh davlatniki hukmron partiya hamda hukumat nazorati ostida bo‘ladi va shu jihati bilan ham g‘arb aqliy markazlaridan farq qilib, xitoycha xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Yana bir muhim jihatini takidlab o‘tish joizki, Xitoydagi hozirgi ko‘plab yetakchi aqliy markaz va jamoat ziyolilari chet elda intellektual ochiqlik muhitida tahsil olgan. Shunga qaramay, ular partiya-davlat maqsadlariga xizmat qilish asosida ruxsat etilgan avtonomiya doirasida faoliyat yuritadilar.

Bugungi kunda Xitoy aqliy markazlarining bir necha turlari bo‘lsada, ularni davlat mamuriyati bilan bog‘lanish darajasiga ko‘ra asosiy uchta katta guruhga ajratishimiz o‘rinli hisoblanadi: [6] rasmiy, yarim rasmiy yoxud universitetlarga aloqador hamda nodavlat (norasmiy) aqliy markazlar.

Davlat (rasmiy) aqliy markazlar - davlat tomonidan moliyalashtiriladigan, ko‘pincha partiya-davlat byurokratik tizimiga integratsiyalashgan va Xitoy hukumatiga siyosiy qaror qabul qilish jarayonida maslahat berish vazifasini bajaradigan institutlar hisoblanadi. Ular

rasmiy byurokratiya va davlat xizmati yoki kadrlar tizimining bir qismi hisoblanadi va ularni Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) kotiblari boshqaradi, ular rasmiy byurokratik darajaga ega. Bu aqliy markazlar siyosat va qaror qabul qilish jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi, lekin ular eng qattiq nazorat qilinadigan tadqiqot muhitidir. Ularda ichki maqsadlar uchun sezilarli darajada tanqidiy va ochiq muhokamalar mavjud bo‘lishi mumkin, ammo bunday muhokamalar faqat elita vakillari uchun ochiqdir. Ularning ahamiyatini shu darajada baholashimiz mumkinki, aqliy markazlar faqatgina markazda emas, balki davlat idoralarida ham faoliyat olib boradi, masalan, vazirliklar (iqtisodiyot), mahalliy hukumatlar (viloyat, shahar darajasida) kabi. Bu shuni anglatadiki, ular oddiy ilmiy institut emas, ichki maslahat beruvchi markazlar bo‘lib siyosiy qarorlar uchun tahlil, tavsiya va prognozlar beradi. Bularga misol qilib Davlat Kengashi Taraqqiyot Tadqiqot Markazi (Development Research Center of the State Council), Xitoy Ijtimoiy Fanlar Akademiyasi (Chinese Academy of Social Sciences) va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Yarim rasmiy aqliy markazlar – universitetlar yoki soha assotsiatsiyalari (birlashmalar) kabi jamoat tashkilotlari bilan bog‘langan bo‘lib, ish faoliyatida rasmiy aqliy markazlarga nisbatan erkin faoliyat olib boradi, shunga qaramasdan baribir markaziy hukumat nazorati ostida hisoblanadi. Misol uchun, Chongyang Moliya tadqiqotlari instituti (Renmin University of China Chongyang Institute for Financial Studies - RDCY) Renmin universiteti tomonidan joylashtirilgan va qisman xodimlar bilan ta’minlangan, ammo asosan xususiy moliyalashtiriladi. Renmin universitetining partiya qo‘mitasi RDCYni nazorat qiladi, ammo bu nazorat kundalik boshqaruv yoki tadqiqot mavzulariga kam ta’sir qiladi. Shunga qaramay, u faoliyatlarni veto qilish (cheklash) va partiya intizomiy choralarini qo‘llash huquqiga ega. Ushbu aqliy markazlarning moliyalashtiruvchi manbaalari universitetlar, fondlar, kompaniyalar yoki xususiy korxonalar hisoblanib, tadqiqotchilari asosan universitet professorlari va ilmiy xodimlardan iboratdir. Ular keng ilmiy resurslarga ega bo‘lib, chuqur va keng qamrovli tadqiqot olib boradi. Natijalari ko‘pincha ilmiy asoslangan bo‘ladi.

Oxirgisi fuqarolik yoki nodavlat aqliy markazlaridir. Ularning faoliyati jamoat tashkiloti bilan bog‘lanmagan bo‘lishi va fuqarolar ishlari vazirligida fuqarolik tashkiloti sifatida ro‘yxatdan o‘tishi shart hisoblanadi. Institutsional moliyalashtirish yoki davlat xizmati maoshi yo‘qligi sababli ko‘pchilik tijorat faoliyatlari bilan shug‘ullanishadi va mablag‘ yig‘ish bilan band bo‘lishadi. Garchi bu aqliy markazlar o‘z faoliyati davomida ko‘plab mavzularni qamrab olsalarda, siyosiy sohadagi ishtiroki juda cheklangan va eng kam miqdorda siyosatga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumotlar va boshqa axborotlarga cheklangan kirish tufayli o‘z tadqiqotlari davomida ba’zi qiyinchiliklarga duch keladi. Shu o‘rinda bu aqliy markazlarga misol tariqasida “Xitoy islohot va taraqqiyot instituti” - “China institute for reform and development” (CIRD), “Buyuk devor korxona taraqqiyot instituti” “Great wall enterprise institute” va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Yuqorida ko‘p bora tilga olgan partiya-davlat tizimi nima ekanligiga biroz to‘xtalib o‘tish lozim. Bu iborani yanada aniqroq qilib party-state power (partiya-davlat kuchi) deb tariflasak yanada to‘gri bo‘ladi, chunki Xitoy siyosiy tizimida Kommunistik Partiya (XKP) va davlat apparati bir-biridan ajralmas holda ishlaydi. Partiya-davlat bu ikkalasining birlashgan, markazlashgan va hamma narsani nazorat qiluvchi kuchini bildiradi [7]. Xitoy aqliy markazlari partiya-davlatning mahsuli va qo‘shimcha organi hisoblanadi. Ular mustaqil emas, balki partiya-davlat kuchining bir qismi sifatida ishlaydi. Nahotki barcha aqliy markazlar partiya-davlat nazorati ostida, birorta ham mustaqil faoliyat yuritadigan aqliy markazlar bo‘lmasa degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Shuning uchun ham yuqorida aqliy markazlarning turlari hamda, bazilari xususiy bo‘lsada ularning hukumat bilan

munosabatlarini batafsil ko‘rib chiqdik, bu esa Xitoy siyosiy tizimining va aqliy markazlar faoliyatining o‘ziga xoligini ko‘rsatadi. Ammo shu jihatini alohida takidlab o‘tish kerakki, bu kabi holatlar Xitoyda aqliy markazlar faoliyati nuqsonsiz ekanligini ko‘rsatmaydi. Xitoyda ham siyosiy tahlil sohasining kamchiliklarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, maqolaning dastlabki qismlarida aytib o‘tilganidek, Xitoydagi siyosiy tahlil tizimi g‘arb bilan solishtirganda biroz farqli. Xitoy aqliy markazlarning soni bo‘yicha AQShdan keying o‘rinni egallab tursada, haqiqiy g‘oyalar bozori (idea market) hali shakllanmagan. Chunki, ko‘pchilik aqliy markazlar partiya-davlatga bo‘ysunadi, tanqidiy fikrlar cheklangan, raqobat zaif. Natijada, Xitoy “katta aqliy markazlar mamlakati” bo‘lib qolmoqda, lekin hali “kuchli aqliy markazli mamlakat”ga aylanmagan [8]. Oddiygina qiyosiy misol bilan aytganda, AQShda aqliy markazlar bir-biriga qarshi turib, turli siyosiy yo‘nalishlarda bahslashadi. Xitoyda esa g‘oyalar asosan bir yo‘nalishda (partiya talablari) bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Xitoyning aqliy markazlar tizimidagi olib borgan siyosati juda samarali baholash mumkin. Qisqa muddatda Xitoyning dunyodagi eng yirik aqliy markazlarga ega bo‘lgan AQShga raqobatbardosh davlat darajasiga ko‘tarilgani tahsinga sazovordir. Xitoy bu darajaga qisqa muddatda erishdi. Ayniqsa, siyosiy tahlil sohasidagi XX asr oxirlaridan boshlangan rivojlanish so‘nggi o‘n yilda misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan rivojlandi, qisqa muddatda o‘z samarasini berdi, ammo hukumatning bu ko‘rinishdagi aqliy markazlarga ega bo‘lishi o‘z ijobiy tomonlari bilan bir vaqtda yoqorida aytib o‘tganimiz kabi salbiy tomonlardan ham chetda qolmadi. Hukumat davlatdagi sodir bo‘layotgan har bir voqeani hatto hukumatga bo‘lgan tavsiyalarni ham nazorat qila oladi, tanqidlar, qarshi kayfiyatlar tartibda saqlanadi. Aqliy markazlar hukumat va partiyaga strategik maslahat beradi, milliy rivojlanish rejalari va siyosatni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Partiya-davlat bilan chambarchas bog‘liqlik ularni barqaror moliyalashtirish va siyosiy ta’sirchanlik bilan ta’minlaydi. Boshqa tomondan esa hukumatni erkin tanqid qilish holatlari juda kam, tanqid bo‘lsa ham partiya-davlat nazoratida, ichki tizimning o‘zida bo‘ladi, aqliy markazlarning chinakam mustaqilligi juda cheklanganligi, raqobatbardosh g‘oyalar bozori shakllanmaganligi va boshqa kamchiliklarini ko‘rish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, boshqa davlatlar tomonidan aqliy markazlarni rivojlantirish borasida Xitoy modelini, tajribasini bevosita o‘z siyosiy tizimida qo‘llash yoki joriy qilish ijobiy natija berishiga ishonish doim o‘zini oqlamasligi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nis Grunberg va Grzegorz Stec (2024, May 17) Whispering advice, roaring praises: The role of Chinese think tanks under Xi Jinping. MERICS (Mercator Institute for China Studies). 5-26 pp. Retrieved from https://merics.org/en/report/whispering-advice-roaring-praises-role-chinese-think-tanks-under-xi-jinping
2. Silvia Menegazzi (2020, Oct 8) Chinese Think Tanks and Public Diplomacy in the Xi Jinping Era. Routledge (Taylor & Francis Group) Retrieved from https://onthinktanks.org/wp-content/uploads/2020/11/Chinese-Think-Tanks-and-Public-Diplomacy-in-the-Xi-Jinping-Era.pdf
3. China's think tanks need to do more. Is stronger research and autonomy the answer. Retrieved from https://www.yahoo.com/news/chinas-think-tanks-more-stronger-093000130.html?guccounter=1
4. How does a think tank policy come about? Lessons from China Retrieved from https://onthinktanks.org/articles/how-does-a-think-tank-policy-come-about-lessons-from-china/

5. China takes aim at Western ideas Retrieved from https://www.nytimes.com/2013/08/20/world/asia/chinas-new-leadership-takes-hard-line-in-secret-memo.html
6. Think Tank Taxonomy: a three-pillar landscape of Chinese think tanks Retrieved from https://www.ccgupdate.org/p/think-tank-taxonomy-a-three-pillar
7. Jamie Peck (2025, Oct 9) Space to think? Chinese think tanks and the uneven development of party-state power. Political Geography (Elsevier)
8. Wenxing Zhou (2023) Think tanks with Chinese characteristics. International Sociology Reviews. 1-16 pp. (intro) Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/369521547_Think_tanks_with_Chinese_characteristics
9. YANG Yaqin (2021) On Modernization of New Think Tanks with Chinese On Modernization of New Think Tanks with Chinese Characteristics—Analysis from Perspective of Think Tank Influence Evaluation. Bulletin of Chinese Academy of Sciences. Retrieved from https://bulletinofcas.researchcommons.org/journal/vol36/iss1/10/